INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

O‘ZBEKISTONDA LEGAL TECH SOHASIDA XALQARO ONLAYN TA‘LIM PLATFORMALARINI YARATISH

Sevinch G‘ulomova

gulomovasevinch29@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda Legal Tech sohasida xalqaro onlayn ta’lim platformalarini yaratish zarurati, qulayliklari va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Legal Tech texnologiyalarining huquqiy vazifalarini soddalashtirish va avtomatlashtirishdagi ahamiyati, shuningdek yuridik ta`lim tizimiga raqamli platformalarni tashkil etishning ahamiyati ko‘rib chiqiladi, O‘zbekistonning raqamli rivojlanish strategiyasi doirasida yuridik sohaga texnologiyalarni integratsiya qilish va dunyo miqyosida ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish masalalari muhokama qilinadi. Tadqiqotda onlayn ta’lim platformalarini foydalari, ularning xalqaro faoliyatdagi ishlarni almashishdagi o‘rni va huquqiy xizmatlarni raqamli shaklda namoyon etishning ijtimoiy hamda iqtisodiy jihatdan yaxshi tomonlari taqdim etiladi. Shuningdek, tadqiqot doirasida mana shu mavzu bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borildi va Legal Tech sohasini mutaxassislarning o‘quv qo‘llanmalari, onlayn ta’limga oid maqolalar va ma’lumotlar tahlil qilindi. Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, O`zbekistonda Legal Tech sohasi yangi soha bo‘lgani uchun yosh talabalar va texnologiya sohasidagi mutaxassis vakillar tomonidan katta qiziqishlar uyg‘ongan. Biroq shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekistonda Legal Tech sohasi yangi bo‘lganligi bois xalqaro onlayn ta’lim platformalarini yaratish bo‘yicha hali keng imkoniyatlar yaratilmagan. Tadqiqot yakunida O‘zbekistonda Legal Tech sohasida xalqaro onlayn ta’lim platformalarini yaratish uchun usullar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, maqola O‘zbekistonda Legal Tech sohasini rivojlantirish hamda ushbu sohada vakillari ko‘paytirish uchun xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Legal Tech, onlayn ta’lim, mutaxassislar, huquqiy xizmatlar, yangi texnologiyalar, xalqaro platformalar, tadqiqotlar, raqamlashtirish.

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi barcha sohalarga, shu jumladan huquqiy xizmatlar ko‘rsatish sohasiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Legal Tech sohasi ostida birlashtirilgan yuridik innovatsiyalar xalqaro onlayn ta’lim platformalarni yaratish faoliyatini tubdan o‘zgartirish imkoniyatiga ega. Ushbu maqolada Legal Techning xalqaro onlayn ta’lim platformalarni yaratish uchun foydali jihatlari ko‘rib chiqiladi va uning huquqiy xizmatlar ko‘rsatish samaradorligini oshirishdagi roli o‘rganib chiqildi.

Avvalo, Legal Tech tushunchasiga ta’rif beradigan bo‘lsak, Legal Tech bu yuridik xizmatlarni rivojlantirish va avtomatlashtirish uchun texnologiyalardan foydalanishni bildiradi. Legal Tech sohasi yuridik hujjatlarni avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish, sun’iy intellekt yordamida huquqiy maslahatlar berish, onlayn muammolarni hal qilish, onlayn sud jarayonlarida qatnashish kabi yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda.

O‘zbekistonda ham raqamli texnologiyalar va huquqni birlashtiruvchi yangi yo‘nalish

Legal Tech rivojlanib bormoqda. O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatida ishtirokini kuchaytirish, milliy qonunchilikni global darajada moslashtirish va yuridik sohaning malakali shaxslarning xalqaro darajada bilim olishlarini ta’minlash uchun xalqaro masofaviy ta’lim platformalarni yaratish muhim o‘rin tutadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi davrda atrofimizdagi barcha narsalar zamonaviylashib borayotgan bir vaqtda xalqaro onlayn ta’lim sohasida Legal Tech vositalarini qo‘llash zaruratga aylanmoqda. Bu platforma orqali o‘zbek talabalariga xalqaro huquq, global qonunchilik va zamonaviy huquq sohasidagi amaliyotlarni o‘rganish imkoniyatlari shakllanadi. Buning natijasida O‘zbekiston huquqshunoslari boshqa davlat huquqshunoslari bilan birgalikda raqobatlashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli, Legal Tech sohaning xalqaro onlayn ta’lim platformalarga qanday foyda keltirishi va uni samarali joriy etish yo‘llari haqida chuqur ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi Legal Tech vositalarining xalqaro onlayn ta’lim faoliyatiga ta’sirini o‘rganish va ularning samaradorligini oshirishdagi rolini

aniqlashdan iborat. Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Legal Tech uchun eng muhim xalqaro onlayn ta’lim platformalar bo‘yicha manbalarni aniqlash;
- Xalqaro onlayn ta’limda Legal Tech vositalarini qo‘llashning afzalliklarini aniqlash;
- O‘zbekistonda ushbu sohani qo‘llashning afzallilari

Tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlar xalqaro onlayn ta’lim platformalarni yaratish uchun Legal Tech sohasini rivojlanlantirish bo‘yicha kerakli ko‘rsatmalar beradi. Shu bilan birga, an’anaviy ta’lim tizmi zamonaviy texnologiyalarga mos kelmasligini va onlayn ta’lim platformalar muhimligini ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek, ushbu sohadagi ilmiy bilimlarni boyitishga xizmat qiladi.

USULLAR

Mazkur tadqiqot Legal Tech sohasining xalqaro onlayn ta’lim platformalar yaratishning muhim jihatlarini yanada mukammal o‘rganishga qaratilgan va bunda ilmiy usullardan foydalanilgan. Bu ilmiy usullar orqali xalqaro onlayn ta’lim mavzusi yanada chuqurroq yoritilgan. Quyidagi tadqiqotda foydalanilgan usullarni ko‘rish mumkin:

Adabiyotlar tahlili: Tadqiqotning ushbu usulida Legal Tech sohasidagi xalqaro onlayn ta’lim platformalarini yaratish bo‘yicha ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa manbalarga asoslangan holda mavzuga oid nazariy asoslar o‘rganildi. O‘rganilgan manbalar ichida eng asosiysi xalqaro onlayn ta’lim platformalari (masalan, Coursera, edx) va ularning huquqiy ta’limda foydalanishi haqida ilmiy qo‘llanmalarga qaratildi. Ushbu qo‘llanmalarda ko‘rsatilgan muvaffaqiyatli amaliyotlar va yondashuvlar O‘zbekistonda qo‘llanilish imkonini berishi mumkin.

Hodisani o‘rganish (case study): Tadqiqotning mazkur usulida Legal Tech vositalarini muvaffaqiyatli joriy etgan xalqaro miqyosda bir necha davlatlarda ko‘rishimiz mumkin. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur kabi davlarni tajribasi o‘rganildi. Ushbu mamlakatlar tomonidan qo‘llanilgan usullar va dasturlarni O‘zbekistonga mos kelishi mumkin bo‘lgan asosiy jihatlari sifatida muhokama qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda endilikda tashkil etilayotgan ayrim onlayn ta’lim platformalari ham o‘rganildi va kamchiliklari ko‘rib

chiqildi.

Kontent-tahlil: Tadqiqotning ushbu metodi orqali xalqaro onlayn ta'lim to'g'risida ko`plab e'lonlar, onlayn ta'limga doir maqolalar, ma'lumotlar hamda elektron resurslar kabi manbalarni ko'rib chiqildi. O'zbekistonda yaratilishi mumkin bo'lgan yuridik ta'lim platformalar uchun kontentni yaxshilashga doir qonun-qoidalarga e'tibor qaratildi. Qolaversa, mahalliy qonunchilikka oid mavjud onlayn ma'lumotlarning mazmuni va sifatini o'rganish orqali ularning xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishni baholashga jalb qilindi.

Qiyosiy tahlil: Ushbu metodda Legal Tech sohasidan samarali foydalanish hamda uning rivojlanishi bo'yicha O'zbekiston va dunyo miqyosidagi boshqa davlatlar bilan solishtirish ishlari olib borildi. Boshqa mamlakatlarning Legal Tech sohasida rivojlanganligini, xalqaro onlayn ta'lim platformalarga keng imkoniyatlar yaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayonni o'rganar ekanmiz, bevosita O'zbekistonda LegalTech sohasi, ayniqsa, xalqaro onlayn ta'lim platformalarni yaratish bo'yicha qanday chora ishlab chiqishimiz, qonunchilik tizimida nimalar o'zgartirishimiz yoki qanday qonunlar qabul qilishimiz, umuman ushbu sohani kengaytirishimiz uchun nima ishlar qilishimiz haqida tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida O'zbekistonda Legal Tech sohasi va onlayn ta'lim haqida mavjud qo'llanmalar kamligi va ushbu sohada amalga oshirilgan izlanishlar, tadqiqotlarning sonining cheklanganligi va xalqaro onlayn ta'lim platformalari amalda kam qo'llanishi kabi cheklovlarni misol tarzda keltirsak bo'ladi. Shuningdek, Legal Tech sohasining tez sur'atlarda rivojlanishi tufayli olingan natijalar vaqt o'tishi bilan o'z dolzarbligini yo'qotishi mumkin. Bu cheklovlarni bartaraf etish uchun kelajakda ko'proq ishtirokchilar jalb qilingan va keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etiladi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida O'zbekistonda Legal Tech sohasining xalqaro onlayn ta'lim platformalarni yaratish bo'yicha eng muhim va foydali ma'lumotlar olindi:

Legal Tech sohasidagi xalqaro onlayn ta'limga bo'lgan qiziqishlar

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro onlayn ta'lim Legal Tech sohasida o'z bilim va tajribalarni oshirishni istagan huquqshunoslar uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, onlayn ta'lim huquq sohasidagi vakillarga yangi hamda huquqqa doir texnologiyalar bilan tanishish, ularning amaliyotda ishlata olishi, xalqaro darajada o'z sohalarni o'rganish imkonini beradi.

Legal Tech sohasining asosiy yo'nalishlari va vositalari

- Xalqaro onlayn ta'lim platformalarga doir eng ko'p foydalaniladigan Legal Tech vositalari quyidagilar ekanligi aniqlandi: Huquqiy ma'lumotlar bazalari va qidiruv tizimlari
- Vaqtni hisobga olish va hisob-kitob dasturlari
- Interaktiv ta`lim usullari
- Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish vositalari

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida mutaxassislar tomonidan Legal Techning eng istiqbolli yo'nalishlari sifatida sun'iy intellekt, mashinali o'qitish hamda interaktiv ta'lim dasturlari ko'rsatildi. Ko`plab mutaxassislar kelgusi 5 yil ichida ushbu texnologiyalarning xalqaro onlayn ta'lim sohasida keng qo'llanilishini bashorat qilmoqda.

Legal Tech sohasining xalqaro onlayn ta'limdagi asosiy foydalari

Tadqiqot natijasida Legal Techning xalqaro onlayn ta'limdagi asosiy foydalari aniqlandi:

a) Kengroq o'quv materiallari va mavzular: Legal Tech sohasida onlayn ta'lim yuridik texnologiyalarning har tomonlama mavzularni o'rganish imkoniyatini beradi. Sun'iy intellekt, elektron shartnomalar,onlayn huquqiy maslahatlar va avtomatlashtirilgan yuridik xizmatlar kabi ilg'or yangi texnologiyalar bilan tanishish onlayn ta'lim orqali yanada osonlashadi.

b) Xalqaro hamkorlik: onlayn ta'lim platformalari xalqaro miqyosda yuridik soha vakillari o'rtasida aloqa yaratishga imkon beradi. Talabalar turli davlatlardagi mutaxassislar bilan suhbatlashishlari, xalqaro tajriba almashishlari, va butun dunyo bo'ylab huquqiy tendensiyalarni o'rganishlari mumkin.

c) Xarajatlarni kamayishi: hammamizga ma'lumki, onlayn ta'limning an'anaviy ta'limga qaraganda eng katta foydali jihati bu iqtisodiy tomonlamadir, ya'ni onlayn ta'lim an'anaviy ta'limga qaraganda ancha arzonroqdir. Misol uchun, talabalarga ta'lim muassasalariga borib kelish, o'quv xarajatlari, va transport xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ko'plab onlayn darslar bepul yoki ayrim darslarning to'lovida chegirmalar bo'lishi mumkin.

Shuni ham aytib o'tish joizki, an'anaviy ta'lim maskanlarida narx jihatdan sezilarli ustunlikka ega bo'lgan ko'plab onlayn ta'lim veb saytlari mavjud. Bu turdagi ta'lim yetkazuvchilar,ayniqsa, umri davomida bilim olishdan to`xtamaydiganlar uchun juda qulay. Bunga misol tariqasida,Khan academy, edX, Coursera, Ted-Ed kabi veb saytlarni keltirishimiz mumkin.[1] Qolaversa, masofaviy ta'lim va gibrid modellar, o'quv jarayonlar internet yoki boshqa

[1] https://abt.uz/blog/bepul-onlayn-ta-lim-olish-uchun-jahonning-eng-yaxshi-7-ta-veb-sayti

tekshiruvlar orqali olib borish uchun mo'ljallangan. Ushbu sohani o'rganuvchilar bu turi bilan istalgan joyda, o'zlariga qulay bo'lgan shaklda ta'lim olishlari mumkin. Gibrid modellar esa traditsioniy ya'ni oflayn va masofaviy ta`limning birgalikda ishlatilishi bilan bog'liq. Bu modellar, global ko'lamda keng tarqalishi sababli va yanada rivojlanmoqda. Masofaviy ta'lim va gibrid modellar insonlarga dunyo bo'yicha bilimga kirish uchun katta imkoniyatlar beradi va osonlik bilan har xil ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlaydi.[2]

Legal Tech sohasida xalqaro onlayn ta'lim platformalar yaratish bo'yicha qiyinchiliklar

Tadqiqot davomida Legal Tech vositalarini xalqaro onlayn ta'lim platformalar joriy etishdagi asosiy qiyinchiliklar ham aniqlandi:

a) Moliyaviy muammolar: albatta xalqaro standartlarga mos dunyo miqyosda ko'rinadigan saytlar, turli ilovalar yaratish katta investitsiya talab qiladi. Qolaversa, boshqa davlatlarda platformalar orqali xizmat ko'rsatish ham xarajatlarni ortishiga sabab bo'ladi. Chunki boshqa mamlakatlarda xizmat ko'rsatish uchun alohida ruxsatnomalar olish va huquqiy talablarni bajarish kabi ishlar sababli xarajatlar ortadi.

b) Texnik xavfsizlik: platformadan foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, turli mamlakatlarning ma'lumotlar xavfsizligi qonunlarga rioya qilish katta mas'uliyat talab etadi. Xalqaro onlayn ta'lim platformasining yuksalishi bevosita uning texnik jihatdan mustahkam va yuridik standartlarga muvofiq ekanligidir.

Legal Techning xalqaro onlayn ta’lim platformalarning kelajakdagi faoliyatiga samaradorligiga ta’siri

Legal Tech sohasining xalqaro onlayn ta’lim platformalarning faoliyatida kelajakda sezilarli darajada samaradorligi seziladi. Avvalo, ta’limning demokratizatsiyasi ya’ni ta’limni ochiq bo‘lishi mumkin. Chunki Legal Tech texnologiyalar huquqiy bilimlarga bo‘lgan kirishni kengaytirib, turli mamlakatlardan bo‘lgan talabalarga o‘z uylaridan turib ta’lim olish imkonini beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish ta’limni ham samarali tashkil qilishga imkon beradi. Sun’iy intellekt yordamida yuridik masalalarni muhokama qilish, nazorat ishlari hamda imtihonlarni avtomatik tekshirish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Shu bilan birga, raqamli yuridik amaliyotlarga

[2] https://scholar.kokanduni.uztayyorlanishda hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga alohida ahamiyatga ega.

Legal Tech sohasida xalqaro onlayn ta’lim platformalarni samarali joriy etish bo‘yicha tavsiyalar

Tadqiqot natijalariga asoslanib, soha vakillari tomonidan Legal Tech vositalarini xalqaro onlayn ta’lim platformalarini amaliyotiga samarali joriy etish bo‘yicha quyidagi asosiy tavsiyalar ishlab chiqildi:

a) Strategik yondashuv: Xalqaro onlayn ta’limda Legal Tech sohasini joriy etishga strategik jihatdan yondashishlari, uzoq muddatli va aniq maqsadlarni belgilashlari va bosqichma-bosqich amalga oshirish rejasini ishlab chiqishlari lozim.

b) Hamkorlik va tajriba almashish: boshqa davlat mutaxassislari bilan hamkorlik qilish, chet el kompaniyalarda amaliyot o‘tash, tajribalar almashish.

c) Texnik jihatdan rivojlantirish: Zamonaviy kompyuter jihozlari, yuqori tezlikdagi internet va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlovchi tizimlarni joriy etish lozim.

d) Bosqichma-bosqich yondashuv: Legal Tech vositalarini bir vaqtning o‘zida emas, balki bosqichma-bosqich joriy etish, har bir bosqichda natijalarni baholab borish maqsadga muvofiq.

MUHOKAMA

Tadqiqot va olib borilgan izlanishlarimiz natijalari O‘zbekiston Respublikasida Legal Tech sohasining xalqaro onlayn ta’lim platformalar yaratishning muhimligini oshirish hamda bu sohani tez sur’atlarda rivojlanishini alohida ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida aniqlangan kamchiliklar va muammolar LegalTech sohasini keyingi faoliyatida samarali faoliyat yuritishi hamda yuqori muvaffaqiyatlarga erishishda amaliy yordam beradi. Zero, tanqid muvaffaqiyat kalitidir. Xalqaro hamkorlikni shu soha orqali rivolantirish, onlayn ta’limda kengroq o‘quv qo‘llanmalar va mavzular, xarajatlarning kamayishi O‘zbekistonda Legal Tech sohasining eng muhim foydalari sifatida e`tirof etildi.

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda Legal Tech sohasini xalqaro onlayn ta’lim platformalar yaratishga doir imkoniyatlar mavjudligi va bu sohada qiziqish oshayotganligini yoritib berdi. Biroq, xalqaro onlayn ta’limda huquqshunoslar huquqiy texnologiyalarni o‘rganishi, ularni amaliyotga tatbiq etish, xalqaro tendensiyalarni bilish asosiy yo‘nalishlar qatorida alohida e’tibor

qaratildi. Ushbu sohada xalqaro onlayn ta'lim tashkil etish orqali boshqa ta'lim sohasidagilar bilan raqobatlashishni oshishi va yuridik xizmatlarni faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlar borligi aniqlandi.

Ushbu tadqiqot davomida ko'rishimiz mumkinki, Legal Tech sohasida xalqaro onlayn ta'lim platformalarini yaratish bo'yicha ko'plab boshqa davlat olimlari, mutaxassislar tomonidan izlanishlar olib borilgan. Ushbu izlanishlar davomida yuridik xizmatlar samarali faoliyat ko'rsatishi hamda huquq sohasida onlayn ta'lim tashkil etish kabi yo'nalishlar muhokama qilindi. Ushbu izlanishlar yoki tadqiqotlar O'zbekistonda Legal Tech sohasini yuksaltirish hamda xalqaro onlayn ta'lim platformalarni yaratishda asosiy funksiyalarni belgilashda yordam beradi.

O'zbekistonda Legal Tech sohasida xalqaro onlayn ta'lim platformalarni yaratishdagi ko'plab qiyinchiliklar bor. Bu haqida tadqiqotning boshida aytib o'tilgandi. Albatta, bu qiyinchiliklar endilikda boshlanib, rivojlanib borayotgan barcha davlatlar boshidan o'tkazgan. Yevropa davlatlari hamda boshqa davlatlari o'tkazgan tadqiqoti natijalari bilan bizning hozirgi holatimiz ko'p jihatlari o'xshashligini ko`rishimiz mumkin. Moliyaviy muammolar, texnik bilimlar yetishmasligi va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq xavotirlar ko`plab tadqiqotlarda ham asosiy muammolar sifatida aniqlangan.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar Legal Tech sohasida xalqaro onlayn ta'lim platformalarni tashkil etish bo'yicha taklif etgan yondashuvlarini to'ldiradi va amaliy jihatdan boyitadi. Xususan, strategik yondashuv, hamkorlik va tajriba alamshish, texnik jihatdan rivojlanish, hamda bosqichma-bosqich joriy etish kabi tavsiyalar har ikkala tadqiqotda alohida o'rin tutadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH. Mirziyoyevning yuridik ta'lim va faniga alohida e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, yuridik ta'limni raqamlashtirish bo'yicha islohotlar olib bormoqda. Bunga misol tariqasida ko'rishimiz mumkinki, 2020-yilda imzolangan Prezident farmoni ya'ni "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. Shu bilan birga, O'zbekistonda onlayn ta'lim rivojlantirishga yana bir misol "O'zbekiston Respublikasining ta'lim to`g`risidagi Qonun"da ko'rishimiz mumkin. Ushbu qonunning 16-moddasida masofaviy ta'lim haqida alohida aytib o'tilgan.

Ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, O'zbekistonda Legal Tech sohasida xalqaro onlayn ta'lim platformalarni yaratishning yuridik ta'limni takomillashtirishdagi ahamiyati imkoniyatlarni tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Davlatimiz huquqiy ta'lim tizimini zamonaviy texnologiyalarga muvofiqlashtirish imkoniyatga ega bo'lishga yordam beradi. Shuningdek, Legal Tech vositalarini samarali joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shuki, mamlakatimizda Legal Tech sohasida xalqaro onlayn ta'lim platformalarini yaratish orqali huquqiy ta'lim va yuridik amaliyotning samarali faoliyat yuritishi bo'yicha amaliy vazifalarni belgilab beradi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida Legal Tech sohasining tez sur'atlarda rivojlanishi tufayli olingan natijalar vaqt o'tishi bilan o'z dolzarbligini yo'qotishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlarni taklif etish mumkin:

1. Legal Tech sohasida xalqaro onlayn ta'lim samaradorligi;
2. Legal Tech sohasida xalqaro onlayn ta'lim platformalarni tashkil etishning uzoq muddatli natijalarini baholash uchun tadqiqotlar o'tkazish;
3. Boshqa davlatlar bilan onlayn ta'lim bo'yicha muzokaralar o'tkazib, tajriba almashish;

4. Legal Tech va Sun'iy intellektning huquqiy tizimlarga ta'sirini batafsil o'rganish;
5. Legal Tech sohasini xalqaro onlayn ta'limda qo'llashning huquqiy va etik jihatlari bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borish.

XULOSA

Ushbu tadqiqot davomida izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda Legal Tech sohasi yangi soha bo'lib endilikda rivojlanmoqda. Yangi soha bo'lganligi uchun shuni ham aytib o'tish joizki, hali bu soha bo'yicha maqolalar, tadqiqotlar, qolaversa, o'zbek tilidagi o'quv qo'llanmalar ham kam. Hozirgi kunda barcha sohalarda zamonaviy texnologiyalar bilan rivojlanayotgan bir vaqtda yuridik sohani ham chetlab o'tmadi. Legal Tech sohasi orqali davlatimizda huquqiy xizmatlarni avtomatlashtirish hamda yuridik ta'limni o'zgartirishga imkon bermoqda.

Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, Legal Tech sohasiga qiziqish ortib bormoqda hamda onlayn ta'lim platformalar yaratish ushbu sohaga zamonaviy texnologiyalar tashkil etish uchun muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqaro onlayn ta'lim orqali imkoniyatlarni kengaytirish mumkin. Xalqaro onlayn ta'limlar xalqaro tajribani mahalliy sharoitda qo'llash imkonini beradi. Bu esa Legal Techni joriy etishning amaliy foydasini tasdiqlaydi. Biroq, Legal Tech vositalarini joriy etish jarayonida bir qator qiyinchiliklar ham mavjud. Moliyaviy to'siqlar, texnik bilimlar yetishmasligi, ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq xavotirlar va huquqiy tartibga solish masalalari shular jumlasidandir.

Tadqiqotdan olingan natijalaridan asoslanib, Legal Tech sohasida xalqaro onlayn ta'lim platformalarga doir samarali joriy etish bo'yicha bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Bular orasida strategik yondashuv, texnik jihatdan rivojlanish, xalqaro hamkorlik va bosqichma-bosqich joriy etish kabi masalalar alohida ahamiyatga ega.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot O'zbekistonda Legal Tech sohasini yuksaltirish uchun xalqaro onlayn ta'lim platformalarni yaratish muhimligini ko'rsatdi. Kelajakda Legal Tech sohasining yanada rivojlanishi va yangi innovatsion yechimlarning paydo bo'lishi kutilmoqda. Shu sababli, onlayn ta'lim platformalarini yaratib, huquq sohasi vakillari uchun bu sohadagi yangiliklar bilan muntazam tanishib borish va o'z bilim hamda ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 29.04.2020 yildagi PF- 5987-soni
2. Abt.uz: https://abt.uz/blog/bepul-onlayn-ta-lim-olish-uchun-jahonning-eng-yaxshi-7-ta-veb-sayti
3. https://scholar.kokanduni.uz
4. O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risida"gi 637-son qonuni. 2020- yil 23-sentabr
5. Cambridge Law journal: https://www.cambridge.org